

**TASAVVUF FALSAFASI: NAVOIY VA G'ARBIY MISTIK YOZUVCHILAR
(JEYMS ALLEN, WILLIAM BLAKE) QIYOSIDA**

Abduxakimova Umida¹

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti
Payariq Xorijiy tillarfakulteti talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted: 04.05.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

*Tasavvuf, Navoiy,
Jeyms Allen, Uilyam
Bleyk, ruhiy poklanish,
mistika, g'arbiy
adabiyot, sharq
falsafasi, ilohiy haqiqat,
ichki uyg 'onish.*

Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiy-falsafiy tafakkurida tasavvuf falsafasining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodidagi tasavvufiy g'oyalar Jeyms Allen va Uilyam Bleyk kabi g'arbiy mistik yozuvchilarining asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada mualliflarining ruhiy poklanish, ichki uyg 'onish, ilohiy haqiqatga yetishish kabi mavzulardagi qarashlari hamda badiiy ifoda uslublari o'r ganiladi. Shuningdek, tasavvuf falsafasining zamonaviy ruhiy-ma'naviy tarbiyada tutgan ahamiyati ham yoritiladi.

KIRISH. Tasavvuf — bu insonning Allohga yaqinlashish yo'lida o'z nafsi yengib, ruhiy poklanishga erishishga intiluvchi ichki sayohatidir. U ko'hna Sharq falsafasining yuragi bo'lib, adabiyotda chuqur falsafiy va estetik obrazlar orqali ifodalanadi. Sharq adabiyotining ulug' namoyandasini Alisher Navoiy bu borada chuqur iz qoldirgan bo'lsa, G'arba Jeyms Allen va William Blake singari yozuvchilar ruhiy uyg 'onish, ilhom va haqiqat izlash yo'lidi qarashlari bilan e'tiborni tortadi. Ushbu maqolada mazkur mualliflarining tasavvufiy ruhdagi asarlari qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Tasavvuf tafakkurida inson qalbi doimo ikki kuch — **nafs va ruh, zulmat va nur** o'rtasida kurash maydoni sifatida ko'rsatiladi. Bu dualistik holat nafaqat Sharq tafakkuriga xos, balki G'arbiy mistiklar — xususan, William Blake ijodida ham asosiy falsafiy yo'nalishlardan

biri hisoblanadi. Blake "Songs of Experience" to‘plamida insonning begunoh tabiat (innocence) va tajribadan so‘ng yuzaga keladigan ichki iztirob (experience) o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi. Tasavvuf, eng avvalo, ruhiy tarbiya tizimi bo‘lib, u orqali inson o‘z “men”idan voz kechib, ilohiy haqiqat sari harakat qiladi. Bu yo‘l sabr, poklik, fidoyilik, muhabbat, sabr-toqat kabi axloqiy qadriyatlar orqali kechadi. Tasavvufda inson qalbi — bu Haq nurini qabul qiluvchi makon, va qalb toza bo‘lmas ekan, haqiqat ko‘zga ko‘rinmaydi.

Tasavvufda eng muhim tushunchalardan biri — bu “fano” holati bo‘lib, u insonning o‘z nafsidan kechib, ilohiy mavjudlikda “yo‘q” bo‘lishini anglatadi. Bunday darajaga erishgan inson uchun dunyo tashvishlari, shon-shuhrat, moddiy manfaatlari o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

Tasavvufning mohiyati va asosiy tushunchalari

Tasavvufda eng asosiy tushuncha — bu “ishq”, ya’ni ilohiy sevgi hisoblanadi. Bu ishq dunyoviy emas, balki ilohiy mohiyatga ega bo‘lib, insonni poklanish, fanolik (o‘zidan kechish) va Allohga yaqinlashuv sari yetaklaydi. Inson qalbi bu yo‘lda asosiy vosita sifatida qaraladi. Bu g‘oya Navoiy asarlarida ham, G‘arbiy mualliflar ijodida ham asosiy falsafiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy va tasavvufiy tafakkur

Navoiy tasavvufga shunchaki diniy amaliyot sifatida emas, balki butun hayotni anglash vositasi sifatida qaraydi. Uning “Hayrat ul-abror”, “Lison ut-Tayr” va “Munojot” kabi asarlarida inson qalbining poklanish jarayoni, nafs bilan kurashish, va ilohiy muhabbat yo‘li o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy tasavvufni faqat nazariy jihatdan emas, balki uni badiiy shakllarda, obrazlar orqali chuqur tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. U asarlarida ishq, fano, ma’rifat, sabr, hijron, visol kabi tushunchalarni o‘ziga xos she’riy timsollar orqali talqin qiladi. Navoiy uchun ishq — bu Haqqa olib boruvchi yo‘l, inson qalbining eng sof, eng ilohiy holatidir.

Navoiy asarlarida qushlar safarga chiqishi, noma’lum sultonni izlash, yovuz nafs bilan kurashish kabi ramziy holatlar orqali tasavvufiy g‘oyalari ifodalananadi. U inson qalbining sayrini shoirona va falsafiy yondashuvda ochib beradi. Navoiy nafaqat shoir, balki mutasavvif, ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida ham tasavvufga oid barcha asosiy tushunchalarni o‘z asarlarida mujassamlashtirgan. Insoniyat tarixida eng chuqur, eng betakror iz qoldirgan oqimlar doimo ma’naviyat va ruhiyat bilan bog‘liq bo‘lgan. Har bir davr, har bir sivilizatsiya, har bir madaniyat ruhiy uyg‘onish, o‘zini anglash va hayot mazmunini topishga intilgan. Bu yo‘lda sharqdagi tasavvuf falsafasi va g‘arbdagi mistitsizm bir-biridan mustaqil holda rivojlangan bo‘lsa-da, ularning mohiyatida o‘xshashlik, hatto bir

nuqtaga jamlanadigan fikrlar bisyor. Alisher Navoiy, Jeyms Allen va William Blake ijodlari ana shu birlikning yorqin ifodasi sifatida maydonga chiqadi.

Tasavvuf falsafasida inson hayoti faqat tashqi hodisalarining ketma-ketligi emas, balki qalbdagi chuqur jarayonlar orqali shakllanadigan haqiqatdir. Bu haqiqat moddiy olam bilan emas, balki ruhiy poklik, ichki tinchlik, Haqqa bo‘lgan muhabbat bilan bog‘liqdir. Navoiy o‘z asarlarida bu ruhiy haqiqatga yetishish uchun sabr, ixlos, fido, muhabbat va ayniqsa, “men”dan voz kechish kerakligini ta’kidlaydi. Uning nazarida inson ruhining ilohiy manbara qaytishi, uni anglash va u bilan uyg‘unlashish — hayotning asl mohiyatidir.

Jeyms Allen bu ruhiy yo‘lni fikrlar va ong orqali tushuntiradi. Uningcha, har bir inson o‘z hayotining yaratuvchisidir va bu jarayon fikr orqali amalga oshadi. Tashqi hayot — bu ichki dunyoning aksidir. Shunday ekan, inson qalbida qanday fikrlar bo‘lsa, uning tashqi muhitida ham shunday natijalar aks etadi. Bu holat tasavvufda "qalb ko‘zining ochilishi", "batin dunyosi" tushunchalariga yaqin keladi. Chunki har ikki tafakkurda ham inson hayotining markazi — uning qalbidir.

William Blake esa inson ruhiyatini yanada nozik va timsollar orqali tasvirlaydi. U o‘z she’rlarida koinotni, tabiatni, insonni va Xudoni bitta butun deb ko‘radi. Blake tasavvur va ruhiy ilhom orqali insonning cheksiz haqiqatga erishishi mumkinligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Uningcha, inson sezgisi orqali emas, balki yurak va ilhom orqali asl haqiqatni anglaydi. Tasavvufda ham bu fikr bevosita mavjud — ya’ni aql bilan emas, qalb bilan tushuniladigan haqiqat mavjud.

Masalan, Navoiy “Lison ut-Tayr” asarida shunday deydi:

"Ishq ichra yo‘ldosh topg‘on yo‘ldan ozmas,

Chunki ishq Haq yo‘lidir, yo‘li so‘zmas." [1]

Bu baytda ishq ilohiy yo‘l sifatida talqin qilinadi. Navoiyga ko‘ra, ishq orqali inson “ma’naviy sayr”ni amalga oshiradi va haqiqatga yaqinlashadi. Jeyms Allen — ingliz yozuvchisi, o‘z-o‘zini anglash, ruhiy uyg‘onish va fikr kuchi haqida yozgan asarlari bilan mashhur. Uning qarashlarida tasavvufga xos bo‘lgan ma’naviy yetuklik, ichki o‘zgarish va o‘zini tarbiyalash g‘oyalari mavjud. Allen uchun inson hayotini belgilovchi eng muhim kuch — bu uning fikrlari. Fikr orqali inson o‘z xarakterini, taqdirini, jamiyatdagi o‘rnini shakllantiradi.

Allen ruhiy o‘sishni faqat tashqi vositalar orqali emas, balki ichki fikr va his-tuyg‘ularni boshqarish orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Unga ko‘ra, har bir inson o‘z taqdirining muallifi bo‘lib, qalbdagi pok niyatlar bilan hayotni o‘zgartirish mumkin. Bu g‘oya tasavvufdagagi “qalbni tozalash” va “nafsn yengish” tushunchalariga juda yaqin turadi.

Bu uch muallifning asarlarida umumiy jihatlar ko‘pligiga qaramay, ularning ruhiy sayri turlicha yo‘nalishda bo‘lgan. Navoiyda bu sayr sof islomiy va tasavvufiy g‘oyalarga tayangan bo‘lsa, Allen fikrning kuchi, ruhiy tarbiya va ichki intizomga urg‘u beradi, Blake esa tasavvur, ilhom va sezgi orqali bu yo‘lni bosib o‘tadi. Ammo ularning barchasi insonning o‘zini anglash, ichki to‘sirlardan ozod bo‘lish va ilohiy haqiqat sari intilish g‘oyasida mushtarak.

Bugungi kunda ham bu uch ijodkorning qarashlari inson uchun qimmatli ma’naviy boylik hisoblanadi. Axborotga to‘la, lekin sokinlikdan mahrum zamonamizda insonlar tobora ko‘proq ruhiy muvozanat izlamoqda. Internet, texnologiyalar, tashqi yutuqlar ko‘paygan sari, ichki xotirjamlik, qalb pokligi, ruhiy uyg‘onish ehtiyoji yanada kuchaymoqda. Bu ehtiyojga javoban tasavvufiy va mistik qarashlar hayotga chuqurroq kirib kelmoqda.

Zamonimiz insoni ko‘proq narsaga ega bo‘lishga emas, ko‘proq bo‘lishga intilmoqda. Bu esa aynan ruhiy sayr, o‘zini anglash, qalbning ovozini eshitish, hayotning sirlarini idrok etish orqali amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Navoiy, Allen va Blake o‘z asarlar bilan zamonaviy inson ruhiyatiga yaqinlashadi. Ular hayotga nafaqat estetik, balki ruhiy, falsafiy mazmun olib kiradi. Ularning merosi orqali biz hayotdagi ko‘rinmas tomonlarni ko‘rish, haqiqatni anglash, orzularimiz ortidagi ichki mohiyatni kashf etishga harakat qilamiz.

Yana bir misolda u deydi:

“Ko‘ngul ko‘zgusi ul jamolga toza,

Ko‘ngulni pok tut — Haq ko‘rinar o‘sha.” [2]

Tasavvufda “ko‘ngul” tushunchasi juda muhim bo‘lib, u Alloh nuri tushadigan makon sifatida qaraladi. Navoiy tafakkurida Haq haqiqatini anglash faqat qalb orqali, uni tozalash va poklash yo‘li bilan mumkin.

Jeyms Allen va fikr qudrati

Jeyms Allen G‘arb adabiyotida o‘zini anglash va ruhiy uyg‘onishga asoslangan mistik-falsafiy yo‘nalishning namoyandasini hisoblanadi. Uning eng mashhur asari — “As a Man Thinketh” bo‘lib, unda inson fikrining kuchi, hayotga bo‘lgan ta’siri haqida chuqur falsafiy mulohazalar bayon etiladi.

Allen shunday yozadi:

“A man is literally what he thinks, his character being the complete sum of all his thoughts.” [3]

Ya’ni, inson aynan qanday fikrlasa, shunday shaxsga aylanadi. Bu tasavvufdagi “nafsn poklash” g‘oyasiga juda yaqin: fikrlar orqali o‘zini tarbiya qilish — bu ruhiy komilllikka

yetishish yo‘lidir. William Blake — ingliz shoiri va rassomi, o‘z ijodida mistik va falsafiy g‘oyalarni g‘oyat chuqur aks ettirgan. Uning asarlarida ruhiy kurash, ilohiy uyg‘onish, insondagi ikki tomonlama kuch — yaxshilik va yomonlik, ruh va jism, begunohlik va tajriba orasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi. Blake nazarida bu ziddiyatlar insonning o‘sishi va ruhiy yetuklikka erishishi uchun zarur.

Blake o‘z ijodida inson tasavvurini ilohiy kuch deb biladi. Unga ko‘ra, inson tasavvuri orqali o‘z ruhiy qobig‘ini yorib, cheksizlikni anglay oladi. Blake asarlarida koinot, tabiat, inson va Xudo o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik olib beriladi. Bu esa tasavvufdagi vahdat ul-vujud g‘oyasiga to‘g‘ri keladi — ya’ni butun mavjudot Allohning mavjudligi bilan bog‘liq va inson bu haqiqatni anglash orqali ilohiy haqiqatga yetadi. Shuningdek, bu uch adibning asarları o‘z xalqining madaniy-tarixiy kontekstida paydo bo‘lsa-da, ular bugun butun insoniyatga tegishli. Ularning ijodi millat va din chegaralaridan ustun bo‘lgan universal qadriyatlarga asoslangan. Masalan, Navoiy o‘z asarlarida o‘zini tanish orqali Xudoni tanish g‘oyasini ilgari sursa, Blake har bir insonda ilohiylik borligini isbotlaydi. Allen esa o‘z taqdirini boshqarish imkoniyatining har bir insonda borligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi inson qalbining cheksiz imkoniyatlariiga, uning yuksakligiga, komillikka intilishiga ishonch bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf va g‘arbiy mistitsizm bir-biridan uzoq, mustaqil yo‘nalishlar bo‘lishiga qaramay, ularni umumlashtiruvchi jihatlar ko‘p. Insonning ruhiy o‘sishi, qalbni poklash, ichki uyg‘onish, ilohiy haqiqatni topish kabi qadriyatlar bu ikki falsafaning asosini tashkil etadi. Navoiy, Allen va Blake — ana shu g‘oyalarni turli shakllarda, lekin bir xil haqiqatga xizmat qilgan ijodkorlardir. Ularning asarlarida ko‘ngilga yaqin, ruhga oziq bo‘ladigan fikrlar mujassam. Bu esa ularni har doim dolzarb va tirik tutadi. Inson qalbi yashar ekan, bu asarlar o‘qiladi, tushuniladi va yuraklarda yangrayveradi.

Allen fikr nazorati orqali ruhiy o‘sishga erishish mumkinligini ta’kidlaydi:

“Good thoughts bear good fruit, bad thoughts bad fruit.” [4]

Bu nuqtai nazar Navoiyning fikrlarini eslatadi. Navoiy uchun ham qalbdagi yovuz niyatlar — zulmatga, pok niyatlar — nurga yetaklaydi.

William Blake va ilohiy ilhom

William Blake — ingliz shoiri, rassomi va mistik mutafakkir. Uning “The Marriage of Heaven and Hell” va “Songs of Innocence and Experience” asarlarida inson ruhiyati, ilohiy ilhom va dualistik dunyoqarashlar tasvirlangan.

Blake shunday deydi:

“If the doors of perception were cleansed, everything would appear to man as it is, infinite.” [5]

Bu fikr tasavvufdagi “haqiqat ko‘zgusi” yoki “qalbni poklash orqali Haqni ko‘rish” tushunchasiga mos tushadi. Blake nazarida inson ichki nigohini tozalasa, haqiqat (va Xudolik) unga zohir bo‘ladi.

Blake, shuningdek, insondagi ruh va tana, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ziddiyatlarni san’at orqali ifoda etadi. U yozadi:

“Without contraries is no progression.” [6]

Tasavvufda ham inson o‘zini tanish yo‘lida ichki ziddiyatlarni yengib, ruhiy yetuklikka yetadi. Navoiyda bu ziddiyat “nafs” va “ruh” orasidagi kurash tarzida tasvirlanadi.

Qiyosiy tahvil

1. Ishq va haqiqat

Navoiy ishqni Haqqa eltuvchi yo‘l deb hisoblaydi [1], Allen esa ruhiy yetuklikka fikr kuchi orqali erishilishini ta’kidlaydi [3]. Blake esa ilhom va ruhiy nigoh orqali cheksizlikni anglash mumkinligini aytadi [5].

2. Qalb va poklanish

Navoiy qalbni ilohiy nurni qabul qiladigan joy deb biladi [2]. Allen fikrni tozalashni qalbni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘radi [4]. Blake esa qalb pardalari tozalanmaguncha haqiqat ko‘rinmasligini aytadi [5].

3. Ziddiyat va yuksalish

Tasavvufda ziddiyatlar (nafs va ruh kurashi) orqali o‘sish mavjud, bu holat Blake ijodida ochiq aks etadi [6]. Allen bu kurashni ong orqali hal qilish mumkin, deya talqin qiladi. Navoiy, Allen va Blake — uch xil zamon, uch madaniyat vakili bo‘lishiga qaramasdan, ular insonning ichki dunyosiga, qalbiga murojaat qilgan. Ular uchun haqiqat tashqarida emas, balki ichkarida, qalb va ong tubida yashiringan. Navoiyning tasavvufiy qarashlari g‘oyatda chuqur diniy asosga ega bo‘lsa, Allen va Blake tafakkurida bu tushunchalar falsafiy-mistik shaklda namoyon bo‘ladi. Har uch muallif ham ruhiy poklanish, ichki uyg‘onish va ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lida insonning qalbini va tafakkurini asosiy qurol deb bilishadi. Ularning asarlari bugun ham insoniyatga o‘zini anglash, ruhiy yuksalish va haqiqatni izlashda ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Alisher Navoiy, Jeyms Allen va William Blake — uch xil zamon va makon vakili bo‘lishlariga qaramay, ularni birlashtiruvchi jihatlar ko‘p. Ularning har biri insonning ichki olamiga murojaat qiladi. Ular tashqi muvaffaqiyat emas, balki ruhiy poklik, qalbdagi uyg‘onish, ichki sokinlikni inson kamolotining mezoni deb bilishadi. Navoiy tasavvufiy yo‘lni sevgi, sabr, fano orqali yo‘lga

qo‘ysa, Allen bu yo‘lni fikrlarni tarbiyalash orqali amalga oshiradi. Blake esa tasavvur va ilhom orqali ruhiy cheksizlikka yetishni ta’kidlaydi. Ularning har biri o‘z davrida insoniyatga o‘zini anglash, ichki kuch va ma’naviy uyg‘onish haqida saboq bergen.

Tasavvuf va mistik adabiyot inson qalbining eng nozik torlarini chertuvchi, ruhiy kamolot sari yetaklovchi yo‘nalishdir. Alisher Navoiy, Jeyms Allen va William Blake kabi yozuvchilar bu yo‘lning ijodiy namoyondalaridir. Ular insonni o‘z “men”idan xalos bo‘lishga, o‘zini anglashga, qalbini poklab, ilohiy haqiqat sari harakat qilishga undaydi. Zamonaviy hayotdagi ko‘plab muammolarning ildizi aynan insonning o‘z ruhiy mohiyatidan uzoqlashganidadir. Shu bois bu uch yozuvchining merosi bugun ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarga ruhiy saboq, ma’naviy uyg‘onish, ichki tinchlik va komillikka yetishish yo‘lida yo‘ldosh bo‘lib qolmoqda.